**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**"Tasdiqlandi"**
**Buxoro davlat universiteti rektori**
**_____________ O.X.Xamidov**
**«______» _______________2025 y**

# PEDAGOGIK KOMPETENTLIK VA KREATIVLIK

## Fan dasturi

| | |
|---|---|
| Magistratura mutaxassisligi: | Barcha magistratura mutaxasisliklari uchun |

Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi 300 talik ro'yxatga kiruvchi Lomonosov Moscow State University https://msu.ru/ (THE 107, QS 105) ta'lim dasturi asosida tayyorlandi.

**Buxoro – 2025**

<table>
<tr><th colspan="2">Fan/modul kodi</th><th colspan="2">O‘quv yili</th><th>Semester</th><th>ECTS – Kreditlar</th></tr>
<tr><td colspan="2">PKvK2202</td><td colspan="2">2025-2026</td><td>2</td><td>2</td></tr>
<tr><td colspan="2">Fan/modul turi</td><td colspan="3">Ta’lim turi</td><td>Haftadagi dars sosatlari</td></tr>
<tr><td colspan="2">Tanlov</td><td colspan="3">O‘zbek/rus</td><td>2</td></tr>
<tr><td rowspan="2">1.</td><td colspan="2">Fanning nomi</td><td>Auditoriya mashg’ulotlaru (soat)</td><td>Mustaqil ta’lim (soat)</td><td>Jami yuklama (soat)</td></tr>
<tr><td colspan="2">Pedagogik kompetentlik va kreativlik</td><td>30</td><td>30</td><td>60</td></tr>
</table>

2.

**I. Fanni o‘rganishning zaruriyati:** Ushbu kurs o‘quv rejadagi “Pedagogik diagnostika va korrektsiya”, “Pedagogik pragnostika”, “Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat”, “Pedagogik riskologoya”, “Pedagogik aksiologiya” kabi o‘quv kurslari bilan uzviy bog’langan holda talabalarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

“Pedagogik kompetentlik va kreativlik” kursini o‘zlashtirish jarayonida talabalar:

“kompetentlik”, “kasbiy kompetentlik”, “pedagogik kompetentlik”, “mahorat”, “pedagogik mahorat”, “pedagogik qobiliyat”, “noyob qobiliyatlar”, “nizo”, “pedagogik nizo”, “Individual rivojlanish dasturi”, “o‘z-o‘zini rivojlantirish”, “o‘z ustida ishlash”, “o‘zini o‘zi baholash”, “pedagogik refleksiya”, “pedagogik relaksatsiya”, “pedagogik deontologiya”, “pedagogik empatiya”, “pedagogik imidj”, “kreativlik”, “pedagogik kreativlik”, “pedagogning kreativlik potentsiali” kabi **tushunchalarni mustahkamlaydilar**;

Kursni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar pedagogik kasbiy kompetentlikni oshirish, pedagogik mahoratga ega bo‘lish, pedagogik tajribalarini boyitish, kasbiy faoliyatga ijodiy yondashish, o‘z ustida ishlash, kasbiy takomilga etishish, o‘z-o‘zini faollashtirish va o‘zida pedagogik texnikani rivojlantirish orqali ta’limning sifat va samaradorligini yuqori bosqichga ko‘tarishga imkon beruvchi ko‘nikma, malakalariga ega bo‘ladi.

**Fanning maqsadi** - talabalarning pedagogik kompetentlik, mahorat hamda kreativlik asoslari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishdan iborat. Zero, zamonaviy sharoitda pedagog Pedagog-mutaxasislarsi ijtimoiy jarayonlarning faol ishtirokchisi sifatida har tomonlama etuk shaxs, mutaxassis bo‘lishi, uzluksiz ta’lim tizimi samaradorligini oshirishda jonbozlik ko‘rsatishi lozim.

**Fanning vazifalari** – kasbiy kompetentlikka ega bo‘lishining

ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini ochib berish;

- kasbiy kompetentlik, pedagogik mahorat hamda kreativlik borasidagi qarashlar mohiyatini yoritish;
- kasbiy kompetentlik sifatlari va pedagogik mahorat elementlarining o'zlashtirilishi, uning kreativlik potentsialiga ega bo'lishining zaruratini asoslash;
- pedagogik bilimlar taraqqiyoti tarixida to'plangan kasbiy kompetentlik, pedagogik mahorat hamda kreativlik potentsialiga ega bo'lishga doir xorijiy va mahalliy tajribalarni umumlashtirish;
- kasbiy kompetentlik, pedagogik mahorat hamda kreativlik asoslari to'g'risidagi bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish;
- kasbiy kompetentlik, pedagogik mahorat va kreativlik sifatlarini rivojlantirish;
- pedagogik jarayonda yuzaga kelgan salbiy mazmundagi nizolarni bartaraf etish, ijobiy mazmundagi nizolarni to'g'ri baholash va rivojlantirish, o'z ustida ishlash, pedagogik tajribani boyitish ko'nikma hamda malakalarini takomillashtirish.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari).**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-Mavzu: "Pedagogik kompetentlik va kreativlik" ijtimoiy fan sifatida**

"Kompetentlik" tushunchasining mohiyati. "Kreativlik" va "pedagogik kreativlik" tushunchalarining mohiyati. "Pedagogik kompitetlik va kreativlik" fanining nazariy-metodologik asoslari.

**2-Mavzu: Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik kompetentlik va kreativlikni shakllantirishning xorijiy tajribasi**

Yevropa mamlakatlari ta'lim tizimida pedagogik kompetetlik va kreativlik holati. Sharq mamlakatlarida pedagogik kompetetlik va kreativlikning ilmiy va nazariy asoslari. Mamlakatimizda pedagogik kompetentlik va kreativlikka oid ilmiy izlanishlar.

**3-Mavzu: Pedagogik kompetentlik ta'lim jarayoni rivojlanishining muhim omili sifatida**

Pedagog-mutaxasislar kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish aspektlari. O'qituvch kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish tizimi. Kasbiy kompetentsiya va uning shakllanish bosqichlari.

**4-Mavzu: Pedagog-mutaxassislar faoliyatiga kreativ yondashuv kreativlik**

Pedagogik professionalizm. Pedagohik mahorat va kompetensiya mezonlari. Pedagog-mutaxasislar malakasiga ega bo'lish uchun

| | |
|---|---|
| | qo'yiladigan talablar. Professoigramma – kasb tavsifnomasi sifatida. Pedagoglik kasbining sathlarini tashkil etuvchi kompetensiyalar[1].<br>Pedagogning kreativlik potentsiali va darajalarini aniqlash mezonlari. Pedagog-mutaxasislarda boshqaruv san'atini rivojlantirish yo'llari<br>**5-Mavzu: Zamonaviy pedagog imidji.**<br>Pedagoglik kasbining ijtimoiy ahamiyati. Pedagogik nazokat, samimiylik va insonparvarlik. Pedagoglarda kreativlik sifatlarini samarali rivojlantirishga xizmat qiladigan vosita va texnologiyalar.<br>**III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.**<br>Amaliy mashg'ulotlar talabalarda nazariy o'zlashtirilgan bilimlar mustahkamlanadi hamda ularda egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikma va malakalari hosil qilinadi.<br>1. "Pedagogik kompetentlik va kreativlik" fanining predmeti, ob'ekti, maqsadi va vazifalari<br>2. Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik kompetentlik va kreativlikda zamonaviy tendensiyalar<br>3. Pedagog-mutaxasslarda kreativlik sifatlarini samarali rivojlantirishning shakl, metod va vositalari<br>4. Pedagog faoliyatiga kompetensiya va kreativ yondashuv<br>5. Pedagog-mutaxassislar ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini kreativ yondashuv asosida takomillashtirish yo'llari<br>6. Zamonaviy pedagog imidji.<br>7. Pedagoglarda kreativlik sifatlarini samarali rivojlantirishga xizmat qiladigan vosita va texnologiyalar.<br>8. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda pedagoglarda kreativlik sifatlarining namoyon bo'lishi.<br>9. Pedagog-mutaxassislar faoliyatiga kompetensiya va kreativ yondashuv.<br>10. Pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirishning psixotexnologik shakllari.<br>**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.**<br>Mustaqil ta'lim mazmuni ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlar mavzulari asosida shakllantiriladi. Biroq mustaqil ta'lim ko'proq ma'ruza asosida shakllantiriladi. Biroq mustaqil ta'lim ko'proq ma'ruza va seminar mashg'ulotlarida o'rganilgan masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. Mustaqil ta'lim asosida o'qib-o'rganilgan masalalar fan bo'yicha oraliq va yakuniy nazorat tayyorlashda nazorat ishlari savollarida o'z aksini topadi. |

[1] Mazkur mavzu xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi 300 talik ro'yxatga kiruvchi Lomonosov Moscow State University https://msu.ru/ (THE 107, QS 105) ta'lim dasturi asosida tayyorlandi. https://fpo.msu.ru/wp-content/uploads/Education/Programm/FundPO/VARIA%20OB%20Annotaciya%20Osnovy%20pedagogicheskogo%20masterstva%20FundPO.pdf

| | |
|---|---|
| | Mustaqil ta'limni tayyorlashda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:<br>- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha mavzularni konspektlashtirish;<br>- adabiyotlar asosida referat yozish;<br>- Internet tarmog'idan axborotlar izlash va tahlil etish.<br>"Pedagogik kompitetlik va kreativlik" fani bo'yicha tavsiya etiladigan mustaqil ta'limning mavzulari:<br>1. "Kompetentlik" va "Kreativlik" tushunchalarining mohiyati<br>2. "Pedagogik kompitetlik va kreativlik" fanining nazariy-metodologik asoslari.<br>3. Yevroppa va Sharq mamlakatlari ta'lim tizimida pedagogik kompetetlik va kreativlik holati.<br>4. Mamlakatimizda pedagogik kompetentlik va kreativlikka oid ilmiy izlanishlar.<br>5. Pedagog-mutaxasislar kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish aspektlari.<br>6. Kasbiy kompetentsiya va uning shakllanish bosqichlari.<br>7. Pedagogik professionalizm.<br>8. Professoigramma – kasb tavsifnomasi sifatida.<br>9. Pedagogning kreativlik potentsiali<br>10. Kreativlik potentsialining tarkibiy asoslari va ustuvor tamoyillari<br>11. Pedagogning kreativlik potentsiali darajasini aniqlovchi mezonlar<br>12. Pedagoglarning kreativlik sifatlari.<br>13. Pedagoglarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash.<br>14. Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish mohiyati.<br>15. O'quv dasturlarini yaratishga kreativ yondashish. |
| 3. | **V.Fanni o'qish natijasida:**<br>- kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlar, ijtimoiy, maxsus (psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ), shaxsiy, texnologik va ekstremal kompetentlik, pedagogik kompetentlik va uning tarkibiy asoslari, "Individual rivojlanish dasturi", pedagogning individual rivojlanish dasturi, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z ustida ishlash, pedagogning o'z ustida ishlashi bosqichlari, o'zini o'zi tahlil qilish, o'z-o'zini baholash, pedagogik mahorat qanday muhim tarkibiy qismlari, pedagogik qobiliyat turlari, pedagogik muloqot qanday turlari va uslublari, shaxsning o'z-o'zini baholash omillar, o'z-o'zini baholash formulasi, pedagogik tajribani hosil qilish hamda pedagogik nizoni hal etish yo'llari, kreativlik negizida namoyon bo'ladigan ko'nikma-malakalar, kreativlikka xos eng muhim sifatlar, kreativlik potentsialiga ega pedagogda namoyon bo'ladigan malakalar va b.ga oid bilimlar;<br>**Talaba "Pedagogik kompetentlik va kreativlik" fanini o'qigandan so'ng:** |

| | |
|---|---|
| | - talabada kasbiy kompetentlik sifatlarini shakllantirish, pedagogik obro‘ qozonish, pedagogik muloqotni samarali tashkil etish shartlari, pedagogik qobiliyatni samarali rivojlantirish, pedagogik tajribani hosil qilish va pedagogik nizolarni oqilona hal qilish yo‘llari, “Individual rivojlanish dasturi”ni, shuningdek, pedagogning o‘z ustida ishlashi va o‘zini-o‘zi baholash modellarini yaratish, pedagogning o‘z ustida ishlashi, o‘zini o‘zi tahlil qilishi, o‘z-o‘zini baholashi, pedagog hamda bolalarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish, pedagog kreativlik potentsialini rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi omillarni bartaraf etish choralari, bu borada samarali metodlardan foydalanish, pedagogning krativlik potentsiali darajasini aniqlashga doir **ko‘nikma-malakalar**ni muvaffaqiyatli o‘zlashtira olishlari zarur. |
| 4. | **VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:**<br>- interfaol ma’ruza, seminar va amaliy mashg’ulotlarni tashkil etish texnologiyasi;<br>- modulli ta’lim texnologiyasi;<br>- muammoli ta’lim texnologiyasi;<br>- kooperativ ta’lim texnologiyasi;<br>- refleksiv ta’lim texnologiyasi;<br>- art-texnologiyalar;<br>- veb-kvest;<br>- chizma-tasviriy modellar (mantiqiy graf, freym modeli, tayanch konspekt, semantic tarmoq, intellekt karta). |
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>- ma’ruza va amaliy mashg’ulotlarda muntazam qatnashish: munozaralar va o‘quv konferentsiyasida ishtirok etish; tayanch konspektlar tuzish;<br>- joriy va oraliq nazorat topshiriqlarini bajarish;<br>- mustaqil ish topshiriqlarini bajarish;<br>- yakuniy nazorat topshirish. |
| 6. | **Asosiy adabiyotlar.**<br>1. Axmedova M.T. Pedagogik kompetentlik. Uslubiy qo‘llanma. – T.: BROK CLASS SERVIS, 2016. – 84 b.<br>2. Olimov Sh.Sh., Samiyeva Sh.X., Saidova Y.Z. Pedagogik kompetentlik va kreativlik. Darslik/ Buxoro: Durdona, 2023<br>3. Olimov Sh.Sh., Samiyeva Sh.X., Ro‘ziyeva Sh.F. Pedagogik kompetentlik va kreativlik. o’quv qo’llanma/ Buxoro: Durdona, 2024<br>4. Olimov Sh.Sh., Samiyeva Sh.X., Qarshiyev J.A. Innovatsion-pedagogik faoliyatni tashkil etish texnologiyasi: darslik/ Buxoro: Durdona, 2022.- 142 b.<br>5. Samiyeva Sh.X., Narzulloyeva F.F.Kreativ fikrlash [Matn] : darslik / Sh.X. Samiyeva, F.F. Narzulloyeva .-Buxoro: Bukhara hamd print, |

| | |
|---|---|
| | 2023.-184 b.<br>**Qo‘shimcha adabiyotlar:**<br>1.Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017 yil 14 yanvar / SH.M. Mirziyoyev. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.<br>2. Samiyeva Sh.X. Pedagogik innovatika. Darslik. Buxoro: Durdona, 2023.<br>3. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik. -T.: Iqtisod-moliya, 2011. – 420 b.<br>4. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari / Muslimov. N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A.B. – Toshkent, 2015. –. 120 bet.<br>6.5. Утёмов В.В., Зинковкина М.М., Горев П.М. Педагогика креативности: прикладной курс научного творчества / Учеб.посбоие. – Киров: АНОО “Mejreginalno ‘y sITO”, 2013. – 212 s.<br>7.Бермус *А.Г.* Проблемы и перспективы реализации компетентностного подхода в образовании // Интернет-журнал "Эйдос". - 2005. - 10 сентября. - http://www.eidos.ru/journal/2005/0910-12.htm<br>8.Илин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности. СПб.: Питер, 2009.<br>9.Markova A.K. Psixologiya professionalizma. – M.: Znanie, 1996.<br>10.Muslimov N.A., N.Karimova. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining amaliy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2012.<br><br>**Axborot texnologiyalari:**<br>www.gov.uz – O‘zbekistan Respublikasi hukumat portali.<br>www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.<br>https://ziyouz.com/kutubxona |
| 7. | Fan dasturi Buxoro davlat universiteti Kengashining 2025 yil “3” 06 dagi “____” - son majlis bayoni bilan ma’qullangan.<br><br>Fan dasturi “Pedagogika” kafedrasi 2025 yil 5.06 dagi 40-sonli yig’ilish bayoni bilan ma’qullangan. |
| **8.** | **Fan modul uchun ma’sullar:** |

| | |
|---|---|
| | Sh.Sh.Olimov –BuxDU pedagogika kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari doktori, professori<br>B.T.Jurayev- BuxDU pedagogika kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD) |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>N.N.Musayeva– BuxDU professori, pedagogika fanlari doktori<br>A.N.Nusratov – BuxDPI dotsenti, p.f.f.d. (PhD) |